- muhandislik kommunikatsiyalariga zarar yetish xavfini kamaytiradi;
- qimmatli daraxt va butalarning saqlanishini ta’minlaydi;
- ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amaldagi me’yorlar asosida rejalashtirish imkonini beradi;
- yashil ekinlarning rivojlanishini oldindan prognozlash imkonini yaratadi.

Dendrorejalashtirish landshaft kompozitsiyasining asosini tashkil etib, o‘simliklarning rang-barangligi, balandligi, shakli va fasliy o‘zgarishlari orqali hududning badiiy qiyofasini shakllantiradi. Shuningdek, yashil ekinlar yordamida shahar hududlarini funksional zonalash, ya’ni transport, piyodalar, dam olish va turar-joy hududlarini ajratish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dendrorejalashtirish landshaft arxitekturasida ekologik, funksional va estetik muvozanatni ta’minlovchi muhim rejalashtirish vositasidir. Ilmiy asoslangan dendroreja shaharlarning barqaror rivojlanishiga, yashash muhitining sifatini oshirishga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Booth N. K.** Basic Elements of Landscape Architectural Design. — 2012.
2. **Motloch J. L.** Introduction to Landscape Design. — 2001.
3. **Shukurov R.**, **Karimov A.** Landshaft arxitekturasi asoslari. — Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Yashil makon” umummilliy loyihasi materiallari.

O‘ZBEKISTON TOPONIMLARI GEOGRAFIK MAKONLARINING NOMLARINI BELGILASH MUAMMOSI

Karshibayeva Lolaxon Klichyevna

Elmuratova Dilfuza
Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya:*Maqolada geografik joy nomlarini, shuningdek geografik obyektlarning nomlanishi va qayta nomlash bilan bog‘liq hukumat qarorlari, qonunlari hamda Prezident farmonlari doirasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimlar va joy nomlarining shakllanishi, ularning vujudga kelish jarayoni hamda mazkur jarayonlarni shakllantiruvchi omillar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *toponim, joy nomlari, Xovos, Oykonim, Sirdaryo, Boyovut tumani , daryo.*

Аннотация: *В статье анализируется выполнение задач, установленных нормативно-правовыми актами, законами и указами Президента в области наименования и переименования географических объектов, а также географических местностей. Кроме того, всесторонне исследуется формирование топонимов и географических названий, процесс их возникновения, а также факторы, влияющие на эти процессы.*

Ключевые слова: *топоним, название местности, Ховос, Ойконим, Сирдарья, Баяутский район, река.*

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the implementation of tasks established by normative legal acts, laws, and presidential decrees in the field of naming and renaming geographical objects and locations. In addition, the processes of the formation of toponyms and geographical names, their emergence, and the factors influencing these processes are thoroughly examined.*

Keywords:*toponym, place name, Khavos, oikonym, Syrdarya, Boyovut, river.*

KIRISH. So‘nggi yillarda respublikamizdagi geografik joy nomlarini o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, geografik joy nomlari va qayta nom berish masalalariga aloqador bo‘lgan ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilinmoqdi. Binobarin, 2011-yilning 12-oktyabrida “Geografik obyektlarning

nomlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng, 2012-yilning 16-oktyabrida “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 295-sonli qarori e’lon qilindi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komisiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Geografik obyektlarning nomlari hududni kartografiya qilish, toponimik tadqiqotlar o‘tkazish vaqtida, shuningdek geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qator takliflar berib borilmoqda.

Geografik obyektlar - Yerning hozirda yoki o‘tmishda mavjud bo‘lgan hamda muayyan o‘rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun’iy bo‘lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma’muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo‘l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko‘priklar, razyezdlar, yo‘llar, kanallar, suv omborlari, to‘g‘onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko‘llar, muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi. Umuman olganda bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani boshqa bir ko‘chadan, tog‘- adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqgan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni geografiyani oraliq fanlar tarmog‘i toponimika fan o‘rganadi[2].

Shuni ta‘kidlash lozimki, O‘rta Osiyo sharoitida azaldan inson suv manbalarga yaqin joyni o‘ziga yashash makoni sifatida tanlagan. Chunki suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Binobarin, suv obyektlarini bildiruvchi nomlar sekin - asta ular yashagan joylarni, maskanlarni ham ifoda etgan. Gidronimlarning boshqa geografik obyektlarga nom bo‘lib o‘tishi xodisasi bor hayotiy voqelik sanaladi [3].

Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida Mirzacho‘lni o‘zlashtirish bilan bog‘lik va bunyodkor halqimizni qo‘lga kiritgan zafarlarini aks etgan nomlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun, S.Qorayevning yozishicha, Oqoltin, Paxtazor, Paxtaobod, Paxtachi, Paxta-dala kabi sun’iy nomlar “bayroq” qilib olingan. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan geografik obyektlarning nomiga qarab, mahalliy aholini qayerdan ko‘chib kelganlarini aniq bilsa bo‘ladi. Ular qatoriga Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Nurota, Zomin, Forish, Baxmal kabi nomlarni kiritish mumkin. Viloyat xududida kam bo‘lsa xam tarixiy toponimlar uchraydi. Ularning asosiy qismi mintaqaning janubi-g‘arbiy tog‘oldi hududida joylashgan. Bunday nomlarga Xovos, Boyovut, Sardoba, Sho‘razak kabi nomlar misol buladi. Ular orasida Xovos nomi o‘zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida ajralib turadi [4].

Orta Osiyodagi eng kuchli shamollardan biri Xovos shamoli nomi bilan yuritiladi. Xovos qadimiy shahar, u dastlab X asr arab geograf va sayyoxlari Istaxriy, Ibn Xavkal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Xozirgi Xovos shahri 1899 yili chor Rossiyasi tomonidan Ursatevskaya temir yul stantsiyasi sifatida barpo etilgan. Tuman 1955 yildan - 1966 yilgacha Boyovut, 1966 yildan - 1975 yilgacha Yangiyer tumani nomi bilan yuritilgan. Tuman xududi asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan, relyefi notekis. Mutaxassislar tomonidan Xovos nomi turlicha talqin qilingan, ammo ular ishonarli emas va qo‘shimcha etimologik tadkikotlar talab kiladi.

E’tibor berib qarasangiz, joy nomlari asrlar osha yashab, ko‘p hollarda o‘tmish “guvohlari” sifatida tarixiy voqea-hodisa haqida “hikoya qilib beradi”. Sunggi vaktlarda, Xovos so‘zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan

aniqlandi. Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 - Agra, 1756 - Dexli) “Charogi xidoyat” lug‘atida maxalliy forsiy tilli halq xavos – so‘zini avom, xizmatkor ma’nosida qo‘llashini ta’kidlagan.

Viloyat oykonimlari arasida kam bo‘lsa ham ayrim etnooykonimlar uchraydi. Boyovut, Mirishkor, Nayman, Puchugoy, Uvoq, Tojikovul, Turkovul kabi aholi punktlari nomlari etnooykonimlarga misol buladi. Tuman nomi bulgan Boyovut viloyat hududidagi kam sonli etnonimlardan biridir. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho‘lning janubida joylashgan.

Rashiddinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo‘lgan va bir necha tarmoqqa bo‘lingan[5]. XIII-XIV asrlarda boyovutlarning katta bir qismi o‘zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Ayrim qo‘lyozma manbalarda boyovut qadimiy 92 bovli o‘zbek urug‘larining biri sifatida ko‘rsatilgan [6].

Hozirgi Sirdaryo nomi qachon paydo bo‘lganligi haqida Suyun Qorayev shunday yozgan: “Rim tarixchisi Pliniy (milodiy I asr) daryoni skiflar (saklar) Silis deydilar. Ba’zi olimlar Silis - Sir so‘zining o‘zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq o‘rta va yuqori oqimida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan”. Ta’kidlash joizki, sir - “rang, bo‘yoq”, “sariq daryo”, “serob daryo”, “sirt daryo” degan ma’noni bildiradi degan xulosani noto‘g‘ri ekanligini X Xasanov alohida ta’kidlagan. Shu bilan birga, S.Qoraeyvning “bu azim daryo shu atroflarda yashagan sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin”[2], degan fikriga ham qushilib bo‘lmaydi. Demak, daryo nomi qanday ma’noga ega degan savol hozirgacha javobsiz qolmoqda.

Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki, Geografik joy nomlarini guruhlashtirish murakkab masala hisoblanadi, chunki geografik nomlar turlicha bo‘lib, ularni guruhlarga bo‘lish, har bir nomni til qoidalariga, tarixiy jihatdan paydo bo‘lishiga qarab tahlil qilish mushkul masaladir. Turli olimlar tomonidan toponimlarni turlicha guruhlashtirish taklif qilingan bo‘lsada, hanuzgacha yagona, sodda, mantiqiy to‘g‘ri bo‘lgan ilmiy klassifikatsiya ishlab chiqilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Lex.uz.** O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/
2. **Qorayev S.** Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 5 b.
3. **Hakimov Q. M., Mirakmalov M. T.** Toponimika : darslik. – Toshkent, 2020. – 279 b.
4. **Egamqulov H. E., Sh Q. S.** Jizzax va Sirdaryo viloyati toponimlari // Экономика и социум. – 2022. – № 6-2 (97). – B. 67–70.
5. **Wikipedia.** Rashiduddin haqida maqola. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Rashiduddin

LANDSHAFTLARDA GEOEKOLOGIK VAZIYAT VA UNI BARQARORLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Nasullayeva Kamola Sharofovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Global muammolar, kishilik jamiyati hayotining barcha tomonlarini, dunyo siyosatini, iqtisodini, davlatlararo va millatlararo munosabatlarni qamrab olmoqda. Keyingi vaqtda eng muhim global muammolardan biri – ekologik muammolar bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada Buxoro viloyati landshaftlarida sodir bo‘layotgan geoekologik vaziyatlar, muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, ularni oldini olishga doir tavsiyalar berilgan.*